

Rahbar Faoliyatining Abu Nasr Forobiy Asarlaridagi Talqini

Baratova Nasiba Turopovna¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim muassasida rahbarning o'rni, rahbar foliyati va Abu Nasr Forobiy asarlarida rahbarning qay tariqa talqin etilganligi haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Rahbarlik, boshqaruv, boshqaruv faoliyati, ta'sir, rahbar psixologiyasi, pedagogik jamoa, Abu Nasr Forobiy.

Rahbarlik – odamlarga maqsadli ta'sir o'tkazishga qaratilgan, ularning xulqini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan boshqaruvning tarkibiy qismidir. “Boshqaruv” tushunchasi, “rahbarlik” tushunchasiga qaraganda ancha keng tushunchadir. Rahbar boshqaruv faoliyatida qator funksiyalarni bajaradi: pedagogik jamoaning ilmiy-pedagogik faoliyati maqsadlarini aniqlaydi va shakllantiradi, shu faoliyatni rejalashtiradi, rag'batlantirish vositalari va usullarini belgilaydi, uni nazorat qilishni amalga oshiradi va hokazo.

Shuning uchun ham rahbar yosh pedagogning o'zi tanlagan kasbga mexr qo'yishi, o'qituvchilik kasbining sirlarini mukammal o'rganishi va unda o'z kelajagiga nisbatan ishonch tuyg'ulari rivojlanishiga ko'p qirrali ta'sir qiladi, deyishimiz mumkin. O'z navbatida rahbar jamoada o'z o'rniga ega bo'lib, u bilimi, muomilasi, ilmiy dunyoqarashi, pedagogik hodimlar bilan o'zaro munosabatlar, maqsadga intilish, ijtimoiy xulq va boshqalarda jamoa a'zolariga namuna bo'lishi zarur, bundan jamoaning har bir a'zosi o'ziga xos ta'sirlanadi. Rahbar boshqaruv faoliyatida o'zaro ta'sirning ikki yo'nalishini, pedagogning jamoaga va jamoaning pedagogga ta'sirini va bu o'zaro ta'sir ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkinligini hisobga olishi zarur.

Rahbar boshqalarni psixologiyasini yaxshi bilishi kerak. Rahbar xodimlar bilan muloqotda ularning munosabatlarini tashqi belgilaridan yoki jamo faoliyatidagi ishtiroqidan bilib olishi muhim hisoblanadi. Rahbarlikda asosiy funksiya (vazifa) ijtimoiy ta'sir ko'rsatish va hukm o'tkazish sanaladi. Ijtimoiy ta'sir deganda bir yoki bir necha rahbar xodimning (ma'muriyat) jamoadagi ma'naviy ruhiy muhitni o'zgartirish jarayoni tushuniladi.

Pedagogning jamoaga ta'siri uning obro'si, bilimi, dunyoqarashi, o'zi tanlagan kasbga qiziqishi va qobiliyati, o'z fanini puxta bilishi, o'quvchilar bilan munosabati, o'z ustida ishlashi, tashkilotchilik qobiliyati, peshqadamlik qilishi va tashabbuskorligi singari ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Uning obro'si deganda jamoa o'qituvchini mutaxassis sifatida tan olishi, sub'yektiv sifatlarining jamoa faoliyatining ob'yektiv talablariga mos kelishi tushuniladi. Bunda mutaxassisning bilimi, ko'nikma va malakasi, tajribasi, kasb mahorati, uddaburorligi, tdbirkorligi va ijodkorligi uning boshqalardan ko'ra ko'proq ko'zga tashlanishiga va obro' orttirishiga sabab bo'ladi.

Obro'ga ega bo'lgan mutaxassis shaxslararo munosabatlarda yuqori mavqega ega bo'ladi, jamoada uning fikr-mulohazalariga quloq soladilar, undan maslahat so'raydilar, uning nuqtai nazari bilan hisoblashadilar. Ammo obro' orttirishda shaxsiy sifatlarining o'zigina yetarli bo'lmaydi, u yoki bu mutaxassis xaqidagi jamoatchilik fikri ham sabab bo'ladi. Shuning uchun ham mutaxassisning jamoatchilik fikri bilan hisoblashmay iloji yo'q, bu esa jamoaning pedagogga bo'lgan ta'siridir. Ya'ni, jamoa pedagogning ayrim sa'i-harakatlarini rad etishi, qabul qilmasligi, aksincha bundan saqlanishga intilishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, jamoa bilan mutaxassisning o'zaro ta'siri ikki xil, ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin, bunda rahbarning roli yaqqol namoyon bo'ladi.

¹ Qashqadaryo viloyat PYaMO'MM Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti kafedrasida katta o'qituvchisi



Ijobiy ta'sirni vujudga keltirishda rahbar pedagogik jamoa va ta'lim muassasasining manfaatlari bir-biriga mos kelishini istagan holda, qo'l ostidagi xodimlarning muvaffaqiyat hamda kayfiyatlari bilan qiziqishi, tabassum bilan muomala qilishi, xodimlarni ismini aytib hurmat bilan murojaat qilishi (har kimga o'z nomini boshliq og'zidan eshitish yoqimli bo'lishini esda tuting), mutaxassislariga nisbatan diqqat-e'tiborli bo'lishi, suxbatdoshini o'zi haqida gapirishga ruxlantirishi, oshkora axborat almashishdan cho'chimasligi, xodimga uning shu jamoa uchun kerakli ekanligini s'ezdirishi, har bir xodimning kamchiliklarini qayd qilganda, albatta, uning muvaffaqiyatlarini ham e'tirof etishi va boshqa shu kabi raxbarlikning eng maqbul uslublarini o'z faoliyatiga tadbiiq etishi zarur.

Rahbarlik faoliyati barcha davrlarda muhim va o'ta murakkab muammolardan bo'lib kelgan. Sharq mutafakiirlarining pedagogik asarlarida bayon etilgan. Shu jumladan, Yusuf Xos Hojib, Jaloliddin Davoniy va Unsurul-Maoliy Kaykovusning asarlarida keng yoritilgan.

Abu Nasr Forobiy o'z davridagi barcha ilmlarni ilg'or madaniy yutuqlarni o'zlashtirib, ular asosida orginal ijtimoiy-siyosiy va falsafiy sistemasini olg'a surgan, ta'lim-tarbiya sohasida ham ko'p ilg'or fikrlarni aytib o'tgan, zamonasining mashhur faylasufi, yetuk olimi edi.

Xususan, uning ijtimoiy masalalariga oid risolalari «Baxt-saodatga erishuv haqida», «Fozil shahar aholisining fikrlari», shuningdek «Ixso al-ulum», «Aql ma'nolari haqida» nomli asarlari va turli sharhlari bunday fikrlarga bo'ydir.

Inson bilimi, umumiy dunyoqarashning o'zgarishida tarbiyaning rolini ta'kidlab, Forobiy «Ixso al-ulum» asarida bunday deydi: «Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmaydi va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar noo'rin ko'rinadi ... U bilim va tajribaga ega bo'lganidan so'ng, fikri o'zgaradi, noo'rin bo'lib ko'ringan narsalar zaruriy bo'lib chiqadi».²

Forobiy insonning ma'naviy hayotida, asosan uning ikki tomoniga-aqli-axloqiga (xulq-atvoriga) e'tibor beradi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya, uning fikricha insonni aqliy tomonidan ham yetuk, mukammal kishi qilib etishtirishga qaratilmog'i lozim: demak, ta'lim-tarbiyaning bir-biridan vazifasi-jamiyat talablariga to'la-to'kis javob bera oladigan va uni bir butunlikda, tinchlikda farovonlikda saqlab turish uchun xizmat qiladigan ideal inson tayyorlashdir. Farobiyning «Fozil shahar aholisining fikrlari» hamda «Baxt-saodatga erishuv haqida» nomli risolalarida shular to'g'risidagi fikr yuritiladi, bu risolalar aqliy va axloqiy jihatdan etuk, ideal insonlar etishtirish va etuk, ideal insonlardan iborat ideal jamiyat vujudga keltirish vazifalarini bayon qilish bilan yakunlanadi.

Forobiyning insonning ma'naviy jihatdan yetuk va mukammal bo'lib etilishi zarur bo'lgan tarbiya turlari, xususan jismoniy-tarbiya, aqliy intellektual tarbiya, estetik va axloqiy tarbiya haqidagi fikrlarga alohida to'xtalib o'tishdan avval uning umuman ijobiy insoniy xislatlari nimadan iborat ekanligi, bu xislatlarni tarbiyalash usullari, tarbiya etiladigan insonning fazilatlarini to'g'risidagi fikrlarni ko'rib o'tish lozim.

Fogobiy fikricha «O'zida o'n ikki tug'ma xislatni-birlashtirgan» kishigina axloqli odam bo'la oladi. Mana shu shaxs davlatni boshqara oladi deb ko'rsatadi³.

(Birinchiidan), bunday odamning barcha organlari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo'lishi zarurki, u bu organlari bilan bajarmoqchi bo'lgan ishlarni osonlik bilan amalga oshira olsin;

(Ikkinchiidan), barcha masalani, muhokama va mulohazani tezda va to'g'ri tushuna oladigan, uning ma'nosini anglay oladigan;

(Uchinchiidan), xotirasi juda baquvvat bo'lsin, ko'rgan, eshitgan, sezgan narsalarning birortasini ham esidan chiqarmay yodda saqlab qoladigan bo'lsin;

² Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2004. -160 b.

³ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2004. -160 b.



(To'rtinchidan), zehni tez va o'tkir bo'lsin;

(Beshinchidan), so'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarni ravon va ravshan bayon eta olsin;

(Oltinchidan), bilish va o'qishga muhabbati bo'lsin;

(Yettinchidan), ovqatlanishda, ichimlik iste'mol qilishda ochko'z bo'lmasin, tabiati qimor o'yinlarini o'ynashdan yiroq bo'lsin;

(Sakkizinchidan), haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan bo'lsin, yolg'on va yolg'onchilarga, nafrat bilan qaraydigan bo'lsin;

(To'qqizinchidan), ruhi g'ururli va o'z vijdonini qadrlaydigan bo'lsin;

(O'ninchidan), dirham, dinar va shu kabi turmush buyumlariga jirkanish bilan qarasin;

(O'n birinchidan), o'z tabiati bilan adolatli va adolat uchun kurashuvchilarni sevadigan, adolatsizlikka hamda jabr-zulm o'tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin;

(O'n ikkinchidan), adolatli bo'lsin va qaysar bo'lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib o'zbilarmonlik qilmasin, jasur bo'lsin, qo'rqish va ojizlikni bilmasin.⁴

Forobiy bu fazilatlar ichida ayniqsa donolikka, aqllilikka katta e'tibor beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, boshqaruv jarayonining muvaffaqiyatli kechishi va samarali bo'lishida rahbarning o'zida muayyan sifatlarni namoyon eta olishi ham hal qiluvchi omillardan biri sanaladi. Rahbar shaxsida namoyon bo'ladigan ma'naviy-axloqiy, psixologik va shaxsiy sifatlarni boshqaruv faoliyatining samarali natijasini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh. Qurbonov, E. Seytxalilov Ta'lim sifatini boshqarish. T.: "Turon-iqbol" 2006.- 592-bet.
2. S.T. Turg'unov, L.A. Maqsudova, M.A. Umaraliyeva, H.M. Tojiboyeva. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. T.: "Sano-standart". 2012 -98 bet.
3. R. X. Djurayev, S.T. Turg'unov, N. Q. Ahmedova Ta'lim boshqaruvi (nazariya va amaliyot masalalari) T.: 2013. 140 b.
4. R. X. Djurayev, S. T. Turg'unov. Ta'lim menejmenti. Ta'lim menejmenti T.: "Voriz-nashriyot" 2006, 257-b.
5. Zunnunov A., M. Xayrullayev, B. To'xliyev, N. Xotamov. Pedagogika tarixi. T. Sharq, 2000, 236 b
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2004. -160 b.

⁴ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2004. -160 b.

